

## **TEXNOLOGIK TA'LIM YO'NALISHINI RIVOJLANTIRISHDA LIBOS KOMPOZITSIYASINING AHAMIYATI**

**Sayfullayeva Dilafruz Axmadovna**

Buxoro davlat pedagogika instituti Texnologik ta'lism kafedrasi dotsenti

**Ilxomova Dilfuza Sherali qizi**

Texnologik ta'lism yo'nalishi 1-kurs talabasi

**A R T I C L E I N F O.**

**Abstract:**

**Keywords:** texnologik ta'lism, rivojlanirish, libos kompozitsiyasi, tasvirlash, pedagogik faoliyat, kreativ yondashish, ijodkorlik, dizaynerlik, qobiliyat

Ushbu maqolada texnologik ta'lism yo'nalishini rivojlanirishda libos kompozitsiyasining ahamiyati, texnologik ta'lism yo'nalishida nafaqt kompozitsiyani tasvirlashda, balki, o'zining pedagogik faoliyatiga kreativ yondashishga yordam berishi, talabalarning ijodkorlik, dizaynerlik qobiliyatlarini rivojlanirish haqida fikrlar bayon etilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl> © 2024 LWAB.

**Kirish**

Oliy ta'limda kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirishdan maqsad bo'lajak o'qituvchilarining fanga bo'lgan barqaror qiziqishlarini kuchaytirish, ularning fan asoslarini keng va chuqr egallashlariga erishish orqali ularni yetuk mutaxassis qilib tarbiyalashdir.

Texnologik ta'lism yo'nalishlarida majburiy mutaxassislik fanlarini yosh avlodda tadbirkorlik, ishbilarmonlik, dizaynerlik, ijodkorlik, yaratuvchilik fazilatlarini rivojlaniruvchi fanlar hisoblanadi. Libos kompozitsiyasi fani dizaynerlik ijodiy tasavvurlardan tortib bilish faoliyati to'g'risidagi tushunchalarni bayon etib, bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining kasbiy ko'nikmasi, tafakkuri, tasavvurlarini rivojlaniradi. Ma'lumki, har qanday yaratuvchi inson o'zining xayoliy tasavvuriga suyangan holda ijodiy yondashishni yo'lga qo'ya oladi. Bunday ijodkorlikni rivojlanirishda ijodiy tasavvur qilish, Libos kompozitsiyasi fanini mukammal o'zlashtirishda talabalarning mustaqil o'quv faoliyatiga ijodiy yondashuvni jadallashtirish hamda kasbiy ko'nikmalarini, ta'lism yo'nalishlarini rivojlanirishda muhim ta'limiyy-tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Tikuvchilik sohalarida libos kompozitsiyasi va ranglarning ahmiyatini o'rghanish jarayonida libos kompozitsiyasi va ularning turlari, vositalari, usullari hamda elementlari haqida nazariy bilim olishlari va bu bilimlarni amaliy qo'llashlari bilan belgilanadi. Libos kompozitsiyasi va ranglar dizaynerning ijodiy faoliyati bilan chambarchars bog'liqligi, ya'ni kompozitsiyay nuqtai nazaridan mukamal,

tugallangan, didli, rang va elementlari jihatidan uyg'unlashgan loyihamalar yaratilishda asos bo'lishi bilan belgilanadi. Oliy ta'lismuassasalarida texnologik ta'lismo'nalishi talabalarini texnik ijodkorligini shakllantirish masalasi ko'p qirrali bo'lib, u talabalarini ijodkorlik faoliyatiga tayyorlashning samarali yo'llarini aniqlash va mazmunini muvofiq tanlash birgalikda, o'quv jarayonida texnik ijodkorlikni bo'lajak mutaxassislarining ijtimoiy va kasbiy tayyorgarligini umumlashtirishning aniq usul va vositalarini ishlab chiqishdek muhim pedagogik vazifani o'z ichiga oladi.

O'zbekistonda engil sanoat to'qimachiligi va moda, dizaynerlik yo'nalişlarini rivojlanishi, kichik va o'rta biznesning davlat tomonidan qo'llab quvvatlanishi, yuqori sifatli eksklyuziv dizayn mahsulotlarga talabni ortishi, dizaynerlar faoliyatiga cheksiz imkoniyatlar beruvchi matolar va uskunalarini yangi avlodini paydo bo'lishi - bularning barchasi yangi namunadagi mutaxassislar tayyorlashni taqozo etmoqda.

Milliylik, xalqimizga xos o'ziga xoslik aksariyat dizaynerlar faoliyatidan mustahkam o'rin olmoqda. Uzoq yillar davomida unutilgan milliy matolarimiz turlariga, kiyim shakllariga, bichimlariga va ulardagi jozibador naqshlarga qayta-qayta murojaat etilmoqda.

Tarixiy-milliy an'analarni qayta tiklash asosida yangilik yaratish, ya'ni milliy liboslarimizni bugungi kun talablari asosida transformatsiyalash milliy qadriyatlarimizga bo'lgan e'tibor sifatida e'zozlidir. Buyum muhitini yaratish - odamzotning azaliy muammosidir. Bu jamiyatning madaniy asosi bilan chambarchas bog'liq va uning azallarini, madaniyat darajasini, badiiy-estetik intilishlarini va ideallarini ifodalaydigan ijtimoiy muammosidir. Buyumlarni ishlab chiqishning asosiy maqsadi - aholini moddiy va ma'naviy talablarini qondirish va buyumlarni ijtimoiy maqbulligidir.

Dizayner albatta ijtimoiy muhim, qulay, ko'pfunksiyali, ma'lum iste'mol guruhiga mo'ljallangan va talablarini qondiradigan buyumlami yaratishda qatnashishi zarur. Bular barchasi buyum dunyoning tartibsizligini, kerak emas, elitar va dublyor buyumlarni yo'qotishni osonlashtiradi. Go'zal, ijtimoiy yo'naltirilgan buyumlar yangi turmush tarzini o'rnatishga imkon beradi insonning ma'naviy talablarini qondiradi, moddiy vositalami tejamlash rezerviga aylanib, mahsulotni mukammallik darajasini oshiradi. Inson atrofidagi buyum muhitini yaratish aholini, ijodkorlarni, zarshunoslarni va iste'molchilarini e'tiborini jalb etadi.

Dizaynerlarning jamiyat oldida mas'uliyati faqat mahsulotni sifatinigina emas, balki insonni madaniy saviyasini ko'tarishdir. Dizaynerlarning oldida turgan vazifalar quyidagilar: aholining talablarini to'liq qondirish, bozorni kerakli mahsulotlar bilan ta'minlash, buyumlar assortimentini kengaytirish va sifatini ko'tarish.

Moda qiziqarli, tez o'zgarmaydigan, fundamental taqdim etishi kerak. Modaning subyektivizm va obyektivizmi nimadan iboratligini, modaga hayot sur'ati, ilmiy-texnikaviy inqilob ta'sirini tushunish zarur. Moda va sanoat umumiy qonunlar bo'yicha rivojlanadi: moda murakkablansa, buyumning loyihalash texnologiyasi murakkablanadi. Inson kostyumda o'z individualligini va o'z siyosini aks etishiga intiladi. Shuning uchun liboslarni ommabop ishlab chiqarilganda standart buyumni uyg'un siymoligini va iste'molchini individuallikka intilishini qondirish talablarini qiyinchiliklami paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.

Oliy ta'lismuassasalarida texnologik ta'lismo'nalishi talabalarining kreativlik, dizaynerlik va ijodkorlik qobiliyatini oshirishda libos kompozitsiyasi fani talabalarda kompozitya qonuniyatları, kompozitsion yechimlar, libosda kompozitsiyaning o'rni kabi masalalarni ma'ruza darslarida, hamda amaliy mashg'ulotlarda g'oyalarni kompozitsion to'g'ri tasvirlash, simmetriya va assimetriyanı libosda qo'llash, milliy kompozitsion yechimlarni zamonaviy liboslarda tasvirlash va shu kabi ko'nikmalarni

shakllantirishga yordam beradi.

Kompozitsiya – badiiy asar shaklining barcha elementlarini mazkur asarning obrazli g’oyaviy-badiiy mazmunini ifoda etuvchi uzviy bir butunlikka birlashtirishdir. Kiyim kompozitsiyasi — kiyim shakli barcha elementlarini uning mazmunini ifoda etadigan birlikni barpo etilish vositalari yordamida tuzib chiqish. Kiyimning mazmuni uning nimaga mo’ljallanganiga qarab belgilanadi. Kiyim shaklining kompozitsiyasi uning mazmunini olib berishga olib kelishi kerak. Xar qanday badiiy asarda uni tashkil etgan barcha elementlar o’rinli bo’lishi kerak. Ortiqcha yoki muallif fikrini yetarlicha yaxshi ifoda etmaydigan nimaiki bo’lsa, xammasi olib tashlanishi kerak. Kompozitsiya maxsus badiiy tildan iborat bo’lib, uning yordamida san’atkor borliqni aks ettiruvchi g’oya va tuyg’ularni tasvirlab beradi. Badiiy obraz borliq in’ikosining estetik shakli xisoblanadi. Kiyimning badiiy obrazi bu kiyimning konkret vazifasini va borliqni aks ettiruvchi asosiy g’oyani ifodalovchi modelning umumiy qiyofasi. San’atkor yaratgan xar bir modelning obrazi insonga ta’sir etishga qodir emotsnonal va ta’sirchan bo’lishi kerak. Kiyim xar yerda va xamma vaqt odam bilan birga bo’lib, unga ishonch, qadr-qimmat, optimizm tuyg’ularini baxsh etishi yoki aksincha, uni tushkunlik va xafalik xolatiga duchor qilishi mumkin. Shunday qilib, kiyimning obrazli ifodaviyligiga kompozitsiya san’ati vositasida, ya’ni kiyimni tashkil etuvchi xajmlar, ranglar, chiziqlar, detallar va bezak elementlarini yagona uzviy bir butun qilib birlashtirish vositasida erishiladi. Biroq- modelarning kiyim va butun kostyum obrazi ustidagi ishi eng muxim jixatga, ya’ni vazifa nuqtai nazaridan qulay, xayotda o’rinli kostyum yaratishga boysundirilgan bo’libgina qolmay, balki ifodali bo’lishi xam kerak. Kompozitsiya san’ati san’atkorning qiziq va muxim jixatlarni ko’ra bilish va alovida tarqoq komponentlarni bir butunlikka uyushtira bilish maxoratidan iborat. Rassom Kramskoy shu fikrni mana bunday ifoda etgan: «Toki rassom kuzatishni, qiziq va muxim narsalarni o’zi sezadigan bo’lishni o’rganib olmaguncha kompozitsiyani o’rganib ololmaydi. Faqat o’zi sezadigan bo’lgan paytdan boshlabgina unda ilg’ab olganining moxiyatini ifoda etish imkoniyati boshlanadi; qachonki u g’oyaning jumbog’i qaerdaligini tushunsa, o’shanda uning ta’riflashigina qoladi-da, kompozitsiya o’z-o’zidan kelib chiqadi». Modeler-rassom o’z ishida uning tasavvuri va fangaziyasini ozuqa berib boyitadigan turli ijodiy manbalarga murojaat etadi. Xalqning tarixiy o’tmishi va xozirgi jamiyat xayoti, atrof-tabiatning xilma-xilligi, tarixiy kostyumlar va xalq kostyumlarining boyligi, badiiy adabiyot, muzika, kino, teatr va xokazolar xozirgi zamon rassomi ijodining manbalari bo’lib xizmat qiladi. Rassom uylarini yetishtirishga va konkretlashtirishga yordam beradigan ayrim motivlardan foydalanib, ana shu manbalardan o’z g’oyalari va obrazlarini to’plab boradi.

Libos kompozitsiyasi fani texnologik ta’lim yo’nalishida nafaqat kompozitsiyani tasvirlashda, balki, o’zining pedagogik faoliyatiga kreativ yondashishga yordam beradi. Yuqoridaqilardan ko’rinib turibdiki texnolig ta’lim yo’nalishlarida libos dizayn fani talabalarning ijodkorlik, kreativlik va dizaynerlik qobiliyatlarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sayfullaeva D. et al. Improving the quality of education in higher educational institutions with the using innovative educational technologies //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing, 2022. – T. 2647. – №. 1.
2. Sayfullayeva D. A. et al. Levels of activation the activities of students //EPRA International Journal of Environmental Economics, Commerce and Educational Management. – 2020. – C. 28-31.
3. Sayfullayeva, D., & Sharobiddinova, G. (2023). BO ‘LAJAK TEXNOLOGIYA FANI O

- ‘QITUVCHILARINI KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI. *Current approaches and new research in modern sciences*, 2(11), 48-51.
- 4. Sayfullayeva DA. Methodology of using autocad software in developing technical creativity of students. GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ) № 10.2022. B-661-671
  - 5. Olimov Q., Umatalieva K., Sayfullayeva D. THE IMPORTANCE OF COOPERATION AND INTERACTION OF THE FAMILY AND PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATION IN THE FORMATION OF A HARMONIOUSLY DEVELOPED PERSONALITY //ББК 74.6 С69 Печатается по решению редакционно-издательского совета БГПУ. – 2019. – С. 132
  - 6. Sayfullayeva D. A. Innovative and Individual Approach in Professional and Vocational Training of Young People with Disabilities //Eastern European Scientific Journal. Ausgabe. – 2017. – Т. 6. – С. 154-157.
  - 7. Sayfullayeva D., Mo'minova D. DIDACTICAL PRINCIPLES OF LABOR EDUCATION //Academicia Globe: Inderscience Research journal. – 2021.
  - 8. [https://majmua.tdpu.uz/files\\_new/17575\\_Kostyum%20kompozitsiyasi%20asoslari%20laboratoriya.pdf](https://majmua.tdpu.uz/files_new/17575_Kostyum%20kompozitsiyasi%20asoslari%20laboratoriya.pdf)